



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

BUYRUQ

29» 01 2024 yil

TOSHKENT

№ 16-22

**Universitetda Xotin-qizlar va erkaklar
uchun teng huquq hamda
imkoniyatlarni ta'minlash masalalari
bo'yicha maslahat kengashini tuzish
to'g'risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrda
“2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish
strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha
2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida”gi SQ-682-IV-sonli
Qarori ijrosi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qonunida xotin-qizlar va erkaklar
uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo‘yicha
tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish
organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa
institutlarining vakillari ishtirokida maslahat kengashlari tuzish” bilan bog‘liq
vazifalar hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil
16-yanvardagi 2/15-4-son xati ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Universitetda Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, maslahat-kengash organlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizom 2-ilovaga, yillik ish rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Maslahat kengashi raisi (D.X. Baratov)ga universitetda Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashining faoliyati nizom va yillik ish rejasi asosida samarali tashkil etilsin.
3. Devonxona mudiri (S.Y. Muratova)ga mazkur buyruqni barcha mas‘ul xodimlarga yetkazish vazifasi yuklatilsin.
4. Mazkur buyruq ijrosining nazorati Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (D.X. Baratov) zimmasiga yuklatilsin.

Rektor

O.K. Abduraxmanov

28850000